

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TO'GARAK O'TISHNING AHAMIYATI

Namangan viloyati chortoq tumani

XTB ga qarashli 7-umumiy o'rta ta'lif maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Umirzaqova Nargiza Xafisxonovna

Annotatsiya: Maktabda faoliyat olib borayotgan to'garak mashg'ulotlarining o'quvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etishi, ijodiy qobilyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirish shuningdek, qo'shimcha ta'lif-tarbiya berish bilan birga ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tshkil etishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: To'garak, ijodkorlik, interfaol usul, intelektual salohiyat.

Bugun biz qurayotgan kelajak ertangi yoshlarning ta'lif-tarbiyasi, salohiyati,aql-zakovati, intelektual va zamonaviy bilimlar berishni taqqazo etadi. Abu Rayhon Beruniyning bola tarbiyasiga oid muhim tavsiyalarini esga olish bu masalani yanada kengroq yoritib beradi. Beruniyning fikricha "bola tarbiyasida uch muhim omil asosiy o'rinni tutishini ta'kidlab o'tadi,ularga quydagilarni o'z ichiga oladi: irsiyat, muhit, tarbiyadir".¹ Bu keltirilgan omillar har bir bola uchun eng asosiy ta'lif-tarbiya omili sifatida xizmat qiladi. Ularni birma-bir izohlab chiqadigan bo'lsak, irsiyat-bu bolaning tug'ilganidan boshlab jon-qon tomirida yuruvchi tarbiya vositasi, ya'ni ota-onasi va butun qarindoshlarining fe'l atvori jo bo'lgan bo'ladi. Ikkinchi omil-muhit bu bolaning tug'ilishidan to butun hayoti davomida bog'liq bo'ladigan voqealari, ijobiy-salbiy oqibatlar, voyaga yetgunga qadar u bilan bog'liq insonlardan tortib muassasalar ham bu jihatga bog'liqdir. Muhit bola xulq-atvori, ta'lif-tarbiyasi, xatti-harakatlarini yuzaga chiqaradi va rivojlantiradi. Muhit hududiga kiruvchi oila, maktabgacha ta'lifmuassasasi, maktab,oliy ta'lif va yana davom etaveradi. Biz to'xtalmoqchi

bo'lgan hudud bu matabdir. Matab maskanida boshlang'ich sinfda hamma narsani yangidan kashf etadi yangidan fikrlaydi va dunyoqarashi o'zgarib boradi. Bu holatni yanada rivojlantirish uchun esa ta'lif beruvchining qo'shimcha mashg'ulot o'tishini talab etadi. Bilamizki axborotlashgan zamonda yashayotganimizning ijobjiy va salbiy jihatlari juda ko'p. shuning uchun ba'zi ota-onalar farzandlari uchun vaqt ajrata olmaydilar. Matablardagi to'garaklar esa bolalarning bu holatdan chiqishiga yordam beradi, nega deganda tengdoshlaridan orta qolmaydi,o'zini yolg'iz imkonsiz his qilmaydi ayni damda u iqtidorini ham shakllantirib boradi. Tarbiya-bu har bir bolada turli xolatda ro'y beradidan to'xtovsiz o'sib boruvchi, shakllanuvchi, rivojlanuvchi ba'zi holatlarda yemirilib yuvilib ketilish holatida bo'ladigan jarayondir. U doimiy xarakatda bo'ladi. Bunga mas'ul tarbiya beruvchilar go'yo ipsiz bog'langan ota-onalar, matabgacha ta'limmuassasalari, matab, mahalla va boshqalar kiradi. Bola tarbiyasida e'tiborli bo'lish har qachongidan ham muhim masala hisoblanib kelmoqda. Yoshlarning vaqtini behuda va besamar o'tkazishi,turli gajjet o'yinlariga berilib borishi, vertuval dunyoga bog'lanib ta'lif-tarbiyadan begonalashuvi qo'yingki turli yomon illatlarni o'zlahtirib olishini juda ko'plab kuzatishimiz mumkin. Shuning uchun ham ta'lif muassasalarida qo'shimcha to'garaklar tashkil etish bu illatlarga qarshi qo'yilgan bir qadam hisoblanadi. To'garak mashg'ulotlarini interfaol usullardan foydalanib olib boorish ta'lif sifatini yanada oshiradi. Bola mashg'ulotda erkin fikrlay olishi, qobiliyatini oshkora namoyon qilishi lozim. To'garakda bola darsdan so'ng o'z qiziqishlari va iqtidoridan kelib chiqqan holda vaqtini mazmunli o'tkazishi qo'shimcha bilim olishi, ijodiy tajriba ortirishi zarur hisoblanadi. To'garakning ijobjiy xususiyatlari quydagilardan iborat:

- 1) Vaqtdan oqilona foydalanish;
- 2) Qo'shimcha ta'lif-tarbiya olish;
- 3) Qobiliyatni rivojlantirish;
- 4) Turli illatlarga aralashuvlardan saqlanish;
- 5) Kasb tanlashga bo'lgan muhabbatni uyg'otish;

- 6) Nutqning rivojlanishi;
- 7) Kirishuvchanlik qobiliyatini yuzaga keltirish va boshqalar kiradi.

Qo'shimcha to'garaklarning tashkil qilinishi ta'lim beruvchi va ota-onalarning o'zaro aloqada bo'lismeni ta'minlaydi. Shuningdek turli xil fanlardan mashg'ulotlarni o'tilishi bolalarning o'zlashtirishda orta qolayotganlar uchun ayni muddao bo'ladi. Chet el ta'limiga nazar soladigan bo'lsak, har bir bola o'ziqtidori va salohiyatidan kelib chiqib bir mashg'ulotga boradi. O'z ustida ishlaydi bilim ko'nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, to'garak rahbari har bir bola uchun alohida yondasshishi shunindek aniq bir maqsadni amalga oshirishi lozim. To'garak ishi bolalar uchun qiziqishlariga qarab ixtiyoriy ravishda tanlangan faoliyatning shaxsiyat uchun muhim, qadriyatlarga asoslangan, individual yondashishga asoslanishi lozim. Bu bolalarga kasbiy va bilimjihatidan o'zini o'zi belgilashda yordam beradi. Darsdan so'ng olingan bilimlarni rivojlantirish ko'nikmalarini dunyoqarashni kengaytirish, asosiy tarkibiy qismida olingan bilimlarni, kuchli tomonlarini amalga oshirishga yordam beradi. To'garaklar faoliyatini turli shakllarda tashkiletish mumkin. A. Avloniyning asarida bola tarbiyasiga oid ko'plab misollar keltirganini ya'ni bolani-tarbiyalanuvchi, o'qituvchini-tarbiyalovchi va boshqa nomlar bilan ataydi, o'qituvchini shamga, o'qivchini uning nuri, parvonasiiga o'xshatadi. Tarbiyalovchi tarbiya oluvchilarni har tomonlama qiziqishlariga qarab ilm berishi va iqtidorini yuzaga chiqarib amaliy haoytda qo'llay oliy san'atini o'rgatishi lozimligini aytadi.² Xulosa o'rnila shuni aytish joizki, boladagi dunyoqarash va ta'lim-tarbiyani eng muhim jarayoni bu uzlusiz ta'limdir. Prezidentimiz ham shunday deb kko'pbor ta'kidlaydi: " agar mendan sizni nima qiyaydi? Deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman", bu masala davlat rahbarining ham doimiy e'tiborida. Shunday ekan bola iqtidori va salohiyati uchun har bir shaxs birdek mas'ul bo'lib uni yo'naltirishi lozim. Foydalanilgan

adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Rayxon Beruniy. Ruhiyat va ta'lim tarbiya.1992
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. 1998
3. <https://hikmatlar.uz>
4. <https://www.sbtue.uz>
5. Yuldashev, О. (2021). РАСЧЁТ СИЛОВЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ. НАУКА И МИР.